

## "UzGasTrade" AJ da kontragentlarni tekshirishga oid YO'RIQNOMA

### I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo'riqnomada "UzGasTrade" AJ (keyingi o'rnlarda – Jamiyat) tomonidan xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarini majburiy tekshirishning (keyingi o'rnlarda Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish) asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi.
2. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:  
Jamiyat xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;  
insofsiz ijrosi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;  
xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;  
Kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyyotkorlik bilan qabul qilish.
3. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish xaridning barcha ishtirokchilari, shu jumladan, ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan ham amalga oshiriladi.
4. Tekshiruv ushbu Yo'riqnomanining 6 va 7-bandida ko'rsatilganlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi.
5. Ushbu Yo'riqnomanining 6 va 7-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, kontragent tekshiruvi natijalari bo'yicha xulosani olmasdan turib shartnomani imzolash va (yoki) to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.
6. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida o'tkazilgan xaridlar bo'yicha kontragentlar tekshirilmaydi.
7. Shuningdek, tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin:  
Kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (shu jumladan, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, issiqlik ta'minoti, muhandislik-texnika ta'minoti, suv ta'minoti, suv chiqarish, oqava suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish (ko'mish) tarmoqlariga ulanish), shuningdek davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlarning, xizmatlarning) narxlar (tariflar) bo'yicha yetkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;
- O'zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlar.
8. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:  
**ijrochi** – Jamiyatda tuzilgan xarid komissiyasi a'zolari;  
kontragent – Jamiyatning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;
- kontragent/kontragentning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar)** - kontragentning xususiy egasi bo'lgan yoki ushbu Kontragent uchun majburiy bo'lgan

ko'rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda uning xarakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

**korrupsiyaviy xarakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatichiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**manfaatlар to'qnashuvи** – Jamiyat xodimining shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) u tomonidan xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan Jamiyat manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**maxfiy axborot** – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

**tashabbuskor** – Jamiyat tarkibiy bo'linmasi;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – Jamiyat xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog'langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablag'lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko'rinishidagi shaxsiy foya olish.

**yaqin qarindoshlar** – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari;

## **II. Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilib olinadigan hujjatlar va axborot manbalari**

9. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilar bergen takliflar solingen konvertlarni baholash uchun ochilganidan keyin, biroq xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.

10. Xarid jarayoni doirasida qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlari tomonidan o'rnatilgan muddatlarga rioya qilinishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish uchun ma'sul – tegishli Xarid komissiya raisi yoki shartnoma tashabbuskori hisoblanadi (agar xarid to'g'ridan to'g'ri shartnoma bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa).

Bunda, ijrochi Xarid komissiya raisi tomonidan tayinlanadi.

11. Kontragentlar tekshiruvi ijrochi tomonidan hujjatlar tashabbuskoridan ushbu Yo'riqnomaning 15-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan sanadan 5 kundan ortiq bo'lмаган muddatda amalga oshiriladi.

12. Tekshiruvni belgilangan muddatlarda o'tkazish imkon bo'lмаган taqdirda uning davomiyligi Xarid komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda 3 kundan ortiq bo'lмаган muddatga yozma shaklda uzaytirilishi mumkin.

13. Kontragentlarning tekshiruvini shoshilinch tartibda o'tkazish zaruriyati mavjud bo'lgan hollarda, tashabbuskor tomonidan shoshilinchlilik asoslangan, tekshiruvni o'tkazishning zarur muddatlari ko'rsatilgan xizmat xati bilan Xarid komissiyasiga murojaat qiladi. Shoshilinch tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qaror Xarid komissiyasi qarori asosida yo'l qo'yiladi.

14. Kontragentlarni tekshirish uchun hujjatlarni toplash va taqdim qilish uchun Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor (agar xarid to'g'ridan to'g'ri shartnoma bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa) ma'sul bo'ladi.

15. Kontragentni tekshirish uchun ijrochiga quyidagi hujjatlari taqdim etiladi:

kontragentning o'zi ushbu Yo'riqnomaga 1-ilovaga muvofiq shaklda to'ldirgan yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

kontragentdan olingan hujjatlari nusxasi (ushbu Yo'riqnomaga 2-ilova);

kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari (mavjud bo'lsa) nusxasi (siyosatlar, nizomlar, hulq-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va b.).

16. Ushbu Yo'riqnomaning 15-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni olish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy hisoblanadi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kontragentning ichki hujjatlari va yakuniy benefitsiarlar to'g'risidagi ma'lumotnoma bundan mustasno. Kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari va yakuniy benefitsiarlar to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etishni rad etgan taqdirda, tashabbuskor

bu haqda Kontragent ustidan taqdim etilgan hujjatlari asosida tekshiruvni amalga oshiradigan ijrochiga xabar beradi.

17. Kontragentdan olingan barcha hujjatlari notarial tarzda yoki kontragentning vakolatli vakili tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Taqdim etiladigan hujjatlari amal qilayotgan bo'lishi, davlat reyestrlari hujjatlari esa tekshiruv sanasiga qadar 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'limgan muddatda olingan bo'lishi kerak.

18. Kontragentni tekshirish uchun ma'lumotlar toplash ijrochi tomonidan kontragent, uning egalari va rahbarlari, faoliyati to'g'risida yaxlit va xolis fikrga ega bo'lish, shuningdek, undan olingan hujjat va ma'lumotlarning ishonchliligi,

shu jumladan, ularning ishonchsizligi bo'yicha belgilari yo'qligini (soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini) baholash uchun amalga oshiriladi.

Kontragentlarni tekshirish doirasida ijrochi quyidagilarni tahlil qiladi:

kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlari. Ushbu Yo'riqnomaga 2-ilovada ko'rsatilgan hujjatlarni kontragentdan olish imkonи bo'limganda yoki olingan hujjat yoki axborotlarning ishonchli emasligi (soxtalashtirilgani) belgilari mavjud bo'lgan hollarda ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosada tegishli belgi qo'yadi;

ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar. Ijrochi 3-ilovada ko'rsatilgan axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu ro'yxat tavsiyaviy bo'lib, zaruriyat tug'ilganda ijrochi boshqa manbalardan foydalanishi mumkin;

tegishli tashkilotlarga rasmiy so'rovnama yuborish yo'li bilan olingan hujjatlari;

Jamiyatning ichki resurslari, shu jumladan, kontragentlar tekshiruvlari reyestri, xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi reyestri va boshqalar.

19. Kontragentni tekshirish uchun ishlatilgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.

20. Zaruriyat bo‘lganda ijrochi tekshiruv davomida kontragentlarni joyiga chiqib, o‘rganishi mumkin. Bu kabi tekshiruvni o‘tkazish uchun ijrochi o‘z bo‘linmasi rahbari bilan kelishishi lozim.

Sayyor tekshiruv davomida tashkilot rahbari (vakolatli vakili) bilan uchrashuv bayonnomasi tuzilib, unda kontragentdan olingan, dastlab ijrochi tomonidan asl nusxalari bilan taqqoslangan hujjalarning tasdiqlangan nusxalari sanab o‘tiladi. Olingan hujjalalar nusxalarining va (yoki) kontragentning vakolatli vakili tomonidan taqdim etilgan izohlar ro‘yxati tekshirilayotgan kontragentning vakolatli vakili va ijrochi tomonidan imzolangan alohida ro‘yxat ko‘rinishida rasmiylashtirilishi va uchrashuv bayonnomasiga ilova qilinishi kerak.

### **III. Kontragentlarni tekshirish metodologiyasi**

21. Kontragentlarni tekshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1) kontragentning huquq layoqati, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlar tarixini tekshirish, shu jumladan:

a) shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, xodimlar va boshqa resurslarning mavjudligi;

b) shartnomada tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

v) soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

g) kontragentlarga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

d) insofsiz ijrochilarining yagona reyestrida qayd etilmaganligi;

2) kontragentning ish sohasidagi obro‘-e’tibori;

3) manfaatlar to‘qashuvni mavjud emasligini tekshirish.

Ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish majburiy hisoblanadi. Jamiat yo‘nalishlari ro‘yxati har bir alohida holatda ijrochining xarid komissiyasi qarori bilan kelishilgan talabi bilan kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo‘nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo‘lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

22. Ijrochi foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi va 24-26-bandlarda ko‘rsatilgan har bir yo‘nalishga nisbatan quyidagi kontragentning tekshiruv natijalari to‘g‘risida xulosada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning bor-yo‘qligini belgilaydi.

23. Ushbu Yo‘riqnomalar amalga kiritilgunga qadar shartnomaviy munosabatlarda bo‘lgan Jamiatning amaldagi kontragentni tekshirishda ijrochi bundan avvalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, ushbu kontragent bilan o‘zaro harakat tajribasi va uning Jamiat bilan avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdagi halolligini tekshiradi.

Yangi kontragentni tekshirishda ijrochi kontragent tomonidan shu kabi shartnomalarning bajarilganligi to‘g‘risidagi axborot va boshqa buyurtmachilar (mijozlar) bergen tavsiyanomalarini tahlil qiladi hamda imkon darajasida ushbu kontragentning boshqa mijozlari oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdagi halolligini tekshiradi.

24. Kontragentning huquq layoqatini, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi

va u bilan bo‘lgan munosabatlar tarixini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma’lumotlarni aniqlaydi:

Tadbirkorlik subyektlarining Yagona reyestrda kontragentning borligi; kontragentning yuridik va amaldagi manzili; kontragent rahbari va ta’sischilarining F.I.Sh.; kontragent asosiy faoliyat turining xarid predmetiga muvofiqligi; kontragent faoliyatini tugatish, qayta tashkil etish, o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

kontragentda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda litsenziyalanishi kerak bo‘lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur litsenziyalarning (ruxsatnomalar) mavjudligi;

Kontragentda ochiq axborot, taqdim etilgan hujjatlar va buxgalteriya hisobdorligiga muvofiq, asosiy mablag‘lar, xususiy kapital, xodimlar va boshqa texnik, moliyaviy, moddiy va Jamiat oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan boshqa resurslarning mavjudligi;

Kontragent nomidan Jamiat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan shaxsda tegishli vakolatning mayjudligi;

Kontragent maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilarining yagona reyestriga kiritilmaganligi;

Kontragentning so‘nggi ikki yil ichida Jamiat oldidagi shartnomaviy majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarmaganligi yoki ularning lozim darajada bajarmaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emasligi;

Kontragentda soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi.

25. Kontragentning ish sohasidagi obro‘-e’tiborini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma’lumotlarni aniqlaydi:

ochiq axborot manbalarida kontragent, uning mulkiy egalari, shu jumladan benefitsiar mulkiy egalari yoki rahbarlarning firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar yoki boshqa noqonuniy faoliyatda ishtirok etganligi to‘g‘risidagi axborot mavjud emasligi;

kontragent rahbariga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi yoki boshqa davlat organlarida qoralovchi ma’lumot yoki materiallarning mavjud emasligi;

kontragent, uning mulkiy egalari yoki bosh direktor (boshqaruv organlari a’zolari) va boshqa rahbarlarning jinoiy tuzilmalar, ekstremistik va terroristik tashkilotlar bilan o‘zaro aloqasi mavjud emasligi;

kontragentning ishbilarmonlik ahloqiy me’yorlari va korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini tartibga soluvchi tartib-taomil va siyosatlarning mavjudligi;

kontragentning mulk egalari yoki rahbarlari (boshqaruv organlari a’zolari) ga nisbatan uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat ishlari mavjud emasligi;

kontragent, uning mulk egalari yoki boshqa rahbarlari to‘g‘risida boshqa salbiy ma’lumotlar mavjud emasligi;

26. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuning 14-moddasiga muvofiq, Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va

boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Shunga muvofiq, ijrochi ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan kontragentning yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnomada aks ettirilgan ma'lumotlarning tadbirkorlik subyektlari Yagona davlat reyestri ma'lumotlariga muvofiqligini tekshiradi. Ushbu tekshiruv Kontragentning rahbarlari va ta'sischilariga nisbatan ham amalga oshiriladi. Shuningdek, ijrochi manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qligini quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiradi:

kontragentning yagona yoki mulkiy egalaridan biri, shu jumladan, benefitsiar mulkiy egasi – bu Xarid jarayonining boshqa ishtirokchisi rahbari yoki uning yaqin qarindoshi emasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Jamiyatning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari uning ustav kapitalidagi ommaviy aylanmada bo'limgan aksiyalari yoki hissalariga, yoki kontragentning Respublika fond birjasida yoki yana boshqa bir fond birjasida ommaviy aylanmada bo'lgan 5% dan ortiq qimmatli qog'ozlariga egalik qilmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Jamiyatning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragent boshqaruv kengashi tarkibiga kirmasligi yoki uning faoliyati natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikka (shu jumladan ularning investitsiyalarini amalga oshirishda) ega bo'lmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Jamiyatning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragentda rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimlarda ishlamasligi;

kontragent va Xarid komissiyasi a'zolari o'rtasida affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa sharoitlar.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirishni ijrochi kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash doirasida Jamiyat xodimlari tomonidan aks ettirilgan va tegishli reyestrga kiritilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiradi.

## V. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish va hujjatlashtirish

27. O'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha ijrochi ushbu Yo'riqnomaga 4-ilovada keltirilgan shaklda xulosa tuzadi. Kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosaga ijrochi o'tkazilgan tahlil va tahlilni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qiladi.

28. Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi alomatlari aniqlangan taqdirda ijrochi uni tartibga solish zaruriyati to'g'risida choralarни ko'rish bo'yicha Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taklif kiritadi. Agar manfaatlar to'qnashuvi alomatlari Jamiyat xodimlarida aniqlangan bo'lsa, bu haqda Komplayens-nazorat bo'limini xabardor qiladi. Manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi bo'yicha o'tkazilgan tahlil yakunlari va uni tartibga solish bo'yicha choralar ham kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosada aks ettiriladi.

29. Xatar indikatorlari aniqlanganda ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi xulosada aniqlangan xatarlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan kontragent bilan ishslash bo‘yicha tavsiyalarni taklif qiladi va aks ettiradi (masalan, shartnomaga avans to‘lovlarga taqiqni kiritish va boshqa).

30. Ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi xulosani Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taqdim etadi. Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor olingan xulosani xarid ishtirokchisini tanlash to‘g‘risida qarorni qabul qilish doirasida hisobga oladi, bu haqda xarid komissiyasi yoki kontragent bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomaga tuzishdagi bayonnomada tegishli yozuv kiritiladi.

31. Kontragent va Jamiyat xodimi o‘rtasida real manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan taqdirda, u Xarid jarayonini davom ettirishdan oldin Jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki hujjatga asosan tartibga solinishi kerak. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish imkonи bo‘lmagan taqdirda kontragent xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatilishi lozim.

32. Agar to‘g‘ridan to‘g‘ri hariddar doirasida kontragentni tekshirish natijalariga ko‘ra, korrupsiyaviy xavf-xatarning mavjudligini yoki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yo‘qligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar aniqlansa, u holda kontragent bilan shartnomaga tuzish ehtimoli haqidagi qaror tashkilot rahbari tomonidan qabul qilinadi.

33. Kontragent tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi xulosa majburiy tartibda xarid qilish jarayonlari natijalari to‘g‘risidagi qaror qabul qilish, shartnomaga bo‘yicha kelishish va to‘lovlarni amalga oshirish uchun talab etiluvchi hujjatlar paketiga qo‘sib qo‘yiladi.

34. Tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi xulosa chiqqanidan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay Komplayens-nazorat bo‘limi bu haqidagi ma’lumotni ushbu yo‘riqnomaga 5- ilovaga muvofiq shaklda Kontragentlarni tekshirish reyestriga kiritadi.

35. Kontragentlarni tekshirish reyestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, kontragentni tekshirish natijalari to‘g‘risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma’lumotlar kontragent bilan shartnomaga munosabatlari to‘xtatilgan kundan boshlab kamida 3 (uch) yil Komplayens-nazorat bo‘limida saqlanadi.

36. Kontragentlarni tekshirish reyestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, kontragentni tekshirish natijalari to‘g‘risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma’lumotlar konfedetsial bo‘lib, Jamiat xodimlariga va xizmat vazifalari va vakolatlari bunday ma’lumotlardan foydalanishni o‘z ichiga olmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

## **VI. Yakuniy qoida**

37. Kontragentlarni tekshirish jarayoni doimiy ravishda Komplayens-nazorat bo‘limi tomonidan monitoring qilib boriladi.

38. Davlat xaridlari va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning ushbu yo‘riqnomaga ta’sir qiladigan normalari o‘zgarganda, ushbu Yo‘riqnomaga qayta ko‘rib chiqilishi kerak.

“UzGasTrade” AJ da kontragentlarni  
tekshirishga oid yo‘riqnomaga 1-ilova

**Yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risida \_\_\_\_\_**

**(haridlar ishtirokchisi) \***

**MA’LUMOTNOMA**

Nº	F.I.Sh.	Tug‘ilgan sanasi	Shaxsning roli (rahbar / ta’sischi / yakuniy benefitsiar)	Shaxs rahbar/ ta’sischi/ yakuniy benefitsiar bo‘lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 5 foizdan ortiq ulushga ega ta’sischilar uchun), foizda
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
…					

\* so‘nggi ikki yil uchun to‘ldiriladi

*Vakolatli shaxsning*

*F.I.Sh.* \_\_\_\_\_

*Harid ishtirokchisidagi vakolatli shaxsning lavozimi*

*Ma’lumotnoma tuzilgan sana* \_\_\_\_\_

“UzGasTrade” AJ da kontragentlarni tekshirishga  
oid yo‘riqnomaga 2-ilova

### **Kontragentdan tekshirish uchun so‘raladigan hujjatlar**

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan kontragentlardan talab qilinadigan hujjatlar:

<b>T/p</b>	<b>Hujjat nomi</b>	<b>Yuridik shaxs (YUSH) / Yakka tartibdagi tardbirkor (YATT)</b>	<b>Yangi kontragent</b>	<b>Joriy kontragent</b>
1	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi	YUSH / YATT	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
2	Soliq hisobiga qo‘yish, shu jumladan STIR to‘g‘risida ma’lumotlar	YUSH / YATT	Majburiy	Majburiy
3	Yuridik shaxslarning yagona Davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida ma’lumot	YUSH / YATT	Majburiy	Majburiy
4	Ustav va boshqa ta’sis hujjatlarining nusxasi	YUSH	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
5	Pasport nusxasi	YATT	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
6	Ishonchnoma	YUSH / YATT	Majburiy	Majburiy
7	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga benefitsar mulkiy egalarni ham hisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi	YUSH	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
8	So‘nggi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti yoki so‘nggi hisobot yili uchun auditorlik xulosasi	YUSH / YATT	Majburiy	Majburiy
9	Ko‘rsatilgan ishlar/xizmatlarni bajarish uchun malakali kadrlarning mayjudligi to‘g‘risida ma’lumot (xat va / yoki tasdiqlovchi hujjatlar shaklida taqdim etilishi mumkin)	YUSH	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
10	Muvofiqlik litsenziyalari va sertifikatlari	YUSH / YATT	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab majburiy	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab majburiy

“UzGasTrade” AJ da kontragentlarni  
tekshirishga oid yo‘riqnomaga

3-ilova

**Kontragentlarni tekshirish uchun ochiq axborot manbalarini**

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi -  
[https://fo.birdarcha.uz/s/ru\\_landing](https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing)
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi - <http://registr.stat.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali -  
<https://my2.soliq.uz/main/info/debtors?lang=uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali - <https://data.gov.uz/ru>
5. Toshkent shahar yer resurslari va Davlat kadastri boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>
6. Insofsiz ijrochilarining yagona reyestri - <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, ma’muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari -  
<https://public.sud.uz/#!/sign/view>
8. Ofshor zonalar ro‘yxati - <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-jurisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html>
9. AQSH maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro‘yxati (yoki WorldCheck ma’lumotlar bazasi)- <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>

Ushbu ro‘yxat ijrochi tomonidan tekshirish uchun tavsiya etilgan manbalar ro‘yxati bo‘lib, zarur bo‘lganda kengaytirilishi mumkin.

“UzGasTrade” AJ da kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomaga 4-ilova

### Kontragentni tekshirish haqidagi hisobot

1.	Ishtirokchining nomi				
2.	STIR				
3.	Ro‘yxatga olingan sana				
4.	Yuridik va amaldagi manzili				
5.	Rahbarning FISH				
6.	Ta’sischilarning FISH				
7.	Yakuniy benefitsiarlarning FISH				
8.	Ishtirokchi tadbirkorlik subyektlarining Yagona Davlat reyestrida bor	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
9.	Ishtirokchidan imzo chekuvchi shartnoma tuzishga haqli	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
10.	Ishtirokchining asosiy faoliyati xarid predmetiga mos keladi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
11.	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda qarzdorliklarning yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
12.	Ishtirokchiga nisbatan joriy etilgan qayta tashkil etish, tugatish (likvidatsiya), bankrotlik tartib- taomillarining yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
13.	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida ishtirokchi haqida yozuvning yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
14.	Jamiyat tizimida ishtirokchi bilan ishlashning avvalgi salbiy tajribasining yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
15.	Ishtirokchi xaridning boshqa ishtirokchilari bilan affillanmagan	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
16.	Manfaatlar to‘qnashuvi / ishtirokchining Tashkilot tizimi xodimlari bilan affillanganligi haqida ma’lumot yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
17.	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish chora-tadbirlari	Manfaatlar to‘qnashuvlarini tartibga solish chora- tadbirlari tavsifi			

18. Korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar ehtimoli haqida ma'lumotlar
19. Ish sohasidagi obro'sining salbiy omillari ehtimoli haqida ma'lumotlar
- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hujjatlarning mavjudligi (veb-saytda taqdim etilgan yoki mavjud)
21. Ishtirokchining sayti
22. Ishtirokchi mavjudligi muddati (yillarda)
- Ishtirokchining moliyaviy, moddiy, texnik, kadrlar va boshqa resurslari
23. miqdori shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli
24. Ishtirokchi tekshirish uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan

Mavjud emas / Manba: [havola], [Harid jarayonlari ishtirokchisining korrupsiyaga odi qoidabuzarligi/poraxo'rligi tavsifi]

Mayjud emas / Manba: [havola], [ishchanlik obro'sining salbiy omillari tavsifi]

*Ha*

*Yo'q*

Mavjud emas/ Saytning manzili: [havola], faol / faol emas

*Ha*

*Yo'q*

*Ha*

*Yo'q*

Agar taqdim etmagan bo'lsa, taqdim etilmaganlarini ko'rsating:

25. Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar
- [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
  - [ Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
  - [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
  - [ Hujjat / materialning qisqacha tavsifi] va b.

Xatarlar aniqlanganligini (ha, yo'q) va, agar shunday bo'lsa, qanday xatarlar va ularni qanday kamaytirish mumkinligini ko'rsating

**Tekshirish natijalari asosida asosiy xulosalar va kuzatishlar**

Xarid jarayoni ishtirokchisini tekshirishni amalga oshirgan xodim haqida ma'lumotlar

F.I.Sh.

Lavozimi

Hisobot tuzilgan sana

Lotning raqami

Imzo

“UzGasTrade” AJ da kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomaga 5-ilova

## Xarid jarayonlari ishtirokchilarini/kontragentlarni tekshirish reyestri